



https://uxdu.uz



PARIS  
FRANCE  
CONFERENCE  
2024.

# International Conference on

## Modern Science and Scientific Studies

Vol 3, Issue 3, March 19th 2024

ISSN (E): 2835-3730 | SJIF 2024: 6.809



CiteFactor  
Academic Scientific Journals



INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

COPE



WorldCat<sup>TM</sup>

ROAD

PEER REVIEW

OA  
open access

EuroPub



E- CONFERENCE  
SERIES



[www.econferenceseries.com](http://www.econferenceseries.com)



# Vol. 3 No. 3 (2024): SCMS

## ARTICLES

1. ANALYSIS OF THE CHEMICAL COMPOSITION OF POLLUTANTS IN THE WORKING FLUID OF HYDRAULIC EXCAVATORS  
Salimova Shaxrizoda Sanjar qizi  
1-4
2. RAUF PARFI SONETLARINING SHAKLIY MANBALARI  
Maqola muallifi: Ruxsora Imomova Axmedovna  
5-18
3. O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BADIY ASARLARINI SHARXLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH  
Fazliddinova SH., Ismatova N., Matlibova Nilufar  
19-23
4. IMPORTANT STAGES OF COMPOSING IN FINE ARTS  
Temirova Muqaddas Ibragimjon qizi, O'rinoval Saddambek Botirjon og'li  
24-28
5. ECONOMIC GROWTH AND WAYS TO MEASURE IT  
Madina Norbutaeva Raxmatullo qizi  
29-33
6. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIK DAN HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI  
Akbarova Shaxzoda Alisher qizi  
34-41
7. PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS  
Abdullajonova Husnida, Scientific supervisor: N. D. Rakhmatova  
42-44
8. "MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MEROSI VA JADID MATBUOTINI YORITISHNING DOLZARB MASALALARI"  
Akbarova Shaxzoda Alisher qizi  
45-54
9. METHOD FOR MASS CONCENTRATION DETERMINATION OF PHENOL AND PYROCATECHOL IN BLOOD USING HIGH-PERFORMANCE LIQUID CHROMATOGRAPHY  
Pattayeva Z. S., Mamatqulov N. N., Anarov B.  
55-58
10. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSPORT SALOHIYATINI AMALGA OSHIRISHGA MO'LJALLANGAN CHORA TADBIRLAR  
Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li  
59-65
11. THE PECULIARITY OF DEPICTING IN CONNECTION WITH THE LANDSCAPE GENRE IN THE CREATION OF PAINTINGS ON NATIONAL THEMES IN VISUAL ARTS  
Nomozova Munavvar Muzaffarjon qizi  
66-70
12. ИССЛЕДОВАНИЕ ЭКСПЛУАТАЦИОННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НАДЕЖНОСТИ АВТОМОБИЛЬНОГО КРАНА МАРКИ XCMG QY 16  
Максудов З.Т., Мухамедова Н.Б., Рустамов К.Ж., Усманов И.И., Магдиев К.И.  
71-78
13. DIDACTIC REQUIREMENTS AND METHODS FOR DEVELOPING THE ARTISTIC-AESTHETIC TASTE OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH MUSIC  
Davladiyarova is the daughter of Shahzoda Komiljon  
79-81

**Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies****Hosted online from Paris, France.****Date:** 19<sup>th</sup> March, 2024**ISSN:** 2835-3730**Website:** econferenceseries.com**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSPORT SALOHIYATINI  
AMALGA OSHIRISHGA MO'LJALLANGAN CHORA TADBIRLAR****Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li**

Buxoro davlat universiteti

iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi

**Annotasiya:**

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yorliqdagi milliy mahsulotlarimiz xorijiy bozorda munosib joy egallamoqda. Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim yo'naliishlaridan biri bu eksportdir. Buning uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratish zarur.

**Kalit so'zlar:** savdo hajmi, eksport, raqobatbardosh, eksport qiluvchi korxonalar, eksport salohiyati eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, eksport shartnomalari, xorijiy hamkorlar, eksportni rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori joriy yil mobaynida mamlakatimizning tashqi iqtisodiy sohasida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to'loving bozor mexanizmi joriy qilindi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni, shu jumladan, komissioner (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilishdan tushgan umumiyligi tushumida eksport ulushi 15 foizdan yuqori bo'lgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish imkoniyati berildi. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligi ustidan muntazam ravishda olib borilayotgan monitoring tashqi savdo va eksportning umumiyligi ijobjiy dinamikasiga qaramasdan ular hajmlarining real o'sish sur'atlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sur'atlariga muvofiq emasligini ko'rsatmoqda.

**Birinchi** navbatda raqobatbardosh afzalliliklarga ega bo'lgan tarmoqlarda bir qator tizimli muammolar va kamchiliklarning saqlanib qolayotganligi eksport hajmlarining salmoqli o'sishini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Jumladan: birinchidan, ishlab chiqarish quvvatlaridan va keng turdagи xom ashyo, shuningdek, mehnat resurslari mavjud bo'lgan hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan

**Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies****Hosted online from Paris, France.****Date:** 19<sup>th</sup> March, 2024**ISSN:** 2835-3730**Website:** econferenceseries.com

yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlovchi afzalliklardan to'liq hajmda foydalanilmayapti;

**ikkinchidan**, eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari rivojlanmayapti, eksportoldi va eksportni moliyalashtirish mexanizmlari mavjud emas;

**uchinchidan**, chuqur marketing taddiqotlarini o'tkazish, uzoq muddatli barqaror tashqi bozorlarni shakllantirish va xorijda tashqi savdo infratuzilmasini yaratishga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti;

**to'rtinchidan**, har xil xizmat turlari eksportini tashkil qilish va ilgari surish bo'yicha tizimli ishlar mavjud emas, ularni ko'rsatish uchun zarur infratuzilma rivojlanmagan.

**O'zbekiston sanoat korxonalari eksport salohiyati oshmoqda**

"O'zekspomarkaz"da qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash va iste'mol tovarlari hamda eksport salohiyatini va mashinasozlik, avtomobil va elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish komplekslarining tarmoqlararo sanoat yarmarkasi yakunlandi.

Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid qabul qilingan farmon va qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini yanada kengaytirishi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etishida keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Sohani yanada rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tibor iqtisodiyotimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlash, yangi ish o'rnlari yaratish va aholi farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilayotir.

Yarmarkada mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tarmoq sanoat korxonalari, kichik biznes subyektlari o'z mahsulotlari va istiqbolda amalga oshirilishi rejallashtirilayotgan yangi loyihalari bilan ishtirop etdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ishtiropchi sanoat korxonalariga tijorat takliflarini tayyorlashda, ularni elektron savdo maydonchalarida joylashtirishda, xorijiy hamkorlar topishda hamda eksport shartnomalarini tuzishda yaqindan ko'mak ko'rsatdi. Natijada jamg'arma ko'magida tarmoqlararo sanoat yarmarkasida ishtirop etgan korxonalar tomonidan jami 35 million dollarlik eksport shartnomalari imzolandi. Ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, mazkur jamg'arma joriy yilning birinchi choragida 627 tadbirkorlik subyektiga mahsulot va xizmatlarni eksport qilishda tashkiliy, huquqiy va moliyaviy xizmatlar ko'rsatdi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida umumiyligi qiymati 642 million dollarga teng eksport shartnomalari imzolandi. Ellikdan ortiq tadbirkorlik



**Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies****Hosted online from Paris, France.****Date:** 19<sup>th</sup> March, 2024**ISSN:** 2835-3730**Website:** econferenceseries.com

subyektiga Germaniya, Rossiya va Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda ishtirok etishda yordam ko‘rsatildi. Bu tadbirlarda 117,8 million dollarlik eksport kelishuvlari imzolandi. Tarmoqlararo sanoat yarmarkasida namoyish etilgan mahsulotlarning eksportbopligi, jahon bozorlarida raqobatbardoshligi, xalqaro sifat standartlariga javob berishi mamlakatimizdagi sanoat korxonalari yuqori eksport salohiyatiga ega ekanidan dalolatdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan ma’lum qilishlaricha, jamg‘arma va Toshkent shahar hokimligi tomonidan joriy yilning 11-13-may kunlari Qozog‘istonning Chimkent shahrida O‘zbekiston sanoat mahsulotlari ko‘rgazmasi tashkil etilishi kutilmoqda. Ko‘rgazmada mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ikki yuzga yaqin sanoat korxonasi qatnashadi. Unda Qozog‘iston bozoriga oziq-ovqat, to‘qimachilik, elektrotexnika, kimyo, farmatsevtika va mashinasozlik sanoati mahsulotlarini yetkazib berish bo‘yicha qator o‘zaro hamkorlik bitimlari va eksport shartnomalari imzolanishi rejalashtirilgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu eksportdir. Buning uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratish zarur.

Shu boisdan, so‘nggi yillarda mamlakatimiz eksport salohiyatini yanada oshirish, biznes muhitini yaxshilash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash borasida muhim qadamlar qo‘yildi.

Sohaning qonuniy asosini mustahkamlash maqsadida 60 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Buning natijasida tashqi savdo jarayonlari soddalashtirilib, eksport qiluvchi korxonalar faoliyatida qator yengilliklar yaratildi. Xusan, davlatimiz rahbarining 2018 yil 20 dekabrdagi “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, eksportni qo‘llab-quvvatlash milliy tizimi yaratildi.

Eksport qiluvchilar mahsulotini eksport bozoriga tashish bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizigacha qoplash uchun kompensatsiya olishlari mumkin. Shuningdek, sug‘urta xizmatlari eksport qiluvchilar tomonidan garov sifatida foydalanilgan taqdirda sug‘urta mukofotining kompensatsiyasini olish tartibi ham joriy qilindi.

Bundan tashqari, bugungi kunda yurtimizda eksport qiluvchi korxonalarining faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularning eksport operatsiyalari bo‘yicha tashqi xarajatlarini qoplab berishga qaratilgan moliyaviy yordam turlari joriy qilingan.

**Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies****Hosted online from Paris, France.****Date:** 19<sup>th</sup> March, 2024**ISSN:** 2835-3730**Website:** econferenceseries.com

Bu moliyaviy yordam turi eksportchi korxonalarining logistika xarajatlarini qisqartirish orqali narx va sifat jihatdan tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Yildan yilga moliyaviy yordam turlari yanada kengaytirilmoqda. 2020 yilda 68 turdag'i tovarga 50 foizgacha miqdorida kompensatsiya taqdim etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, 206 turdag'i tovarga tashqi xarajatlarni qoplab berish bo'yicha kompensatsiya taqdim etilmoqda. Bundan tashqari qo'shni mamlakatlarga eksport qilinayotgan 85 turdag'i tovarlarga ham transport xarajatlarini qoplab berish bo'yicha ham moliyaviy yordam ko'rsatib kelinmoqda.

Prezidentimizning 2020 yil 21 oktyabrdagi "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizda eksportni rag'batlantirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Ushbu hujjat eksport qiluvchilar uchun qator qo'shimcha imtiyozlarni nazarda tutadi. Xususan, Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan korxonalarga beriladigan kafolatlar bo'yicha yangi imtiyozlar tasdiqlandi.

Mazkur hujjat qabul qilingunga qadar tijorat banklarining eksport oldi kredit bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya faqat ishlab chiqaruvchi eksportchilarga berilgan. Mazkur farmon bilan yirik imtiyoz asosiy faoliyati savdo vositachiligi bo'lgan eksport qiluvchilarga ham joriy etildi.

Bugungi kunda Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan 272 ta korxonaga 164 million AQSH dollar miqdorida eksport oldi kredit mablag'lari ajratilgan. Ular tomonidan 703 million eksport amalga oshirilgan va bu hozir ham davom etmoqda.

Eksport qiluvchi korxonalar faoliyatidagi asosiy muammolardan yana biri bu aylanma mablag' yetishmaslidir. Joriy qilingan yangi tartib orqali yana bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar kengaytirildi. Xususan, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun tijorat banklardan olingan kreditlar bo'yicha taqdim etiladigan kafolat miqdori 4 milliard so'mdan 8 milliard so'mgacha oshirildi.

Prezidentimizning 2020 yil 31 oktyabrdagi "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan eksportchi korxonalarining mablag'ga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida hamda ularni eksport majburiyatlarini bajarishda ko'maklashish maqsadida aylanma mablag'larini ta'minlash bo'yicha moddiy yordam ko'rsatish tizimi joriy qilingan.

Ushbu turdag'i moliyaviy yordamdan ko'zlagan asosiy maqsad eksportchi korxonalarini xaridorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida to'liq bajarish, bundan tashqari sifatli va raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarishdir. Shuningdek, yangi

**Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies****Hosted online from Paris, France.****Date:** 19<sup>th</sup> March, 2024**ISSN:** 2835-3730**Website:** econferenceseries.com

turdagi tovarlar bilan tashqi bozordagi yangi xaridorlar topish va eksport geografiyasini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbarining 2022 yil 30 sentyabrdagi “Tadbirkorlik sub’ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi amalga oshirilmoqda. Mazkur dastur doirasida 200 ta eksportchi korxonani saralab, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali yetakchi eksportchi korxonaga aylantirish vazifasi belgilangan edi. Mazkur dasturni uch bosqichda amalga oshirish belgilangan. Ya’ni, birinchi bosqichda 2022 yil yakuniga qadar 50 yetakchi eksportchi korxonalar saralab olindi. 2023 yil boshida esa ular soni 100 taga yetkazildi. 2023 yil 1 iyuldan esa bosqichma-bosqich ular soni 200 taga yetkaziladi. bugungi kunga qadar dasturga qaratilgan 100ta eksportchi korxonalarning 36 tasiga 71 milliard so‘mlik QQS tezlashtirilgan tartibda 7 kun ichida qaytarib berildi.

Bundan tashqari 20 tasiga eksport oldi moliyalashtirish maqsadida 17,3 million dollarlik moliyaviy resurslar ajratildi. Shu bilan birga mazkur eksportchi korxonalarda xalqaro sertifikat va standartlarni joriy etish uchun 30 ming dollargacha bo‘lgan qiymatda eksportni rag‘batlantirish agentligidan moliyaviy yordam olish imkoniyati mavjud. Yil boshidan bugungi kunga qadar 100 ta eksportchi korxona tomonidan 120 million dollarlik eksport amalga oshirilgan.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining ma’lum qilishicha, 2017–2022 yillar mobaynida mamlakatimizning eksport geografiyasi 16 ta mamlakatga kengayib, bugungi kunda mahsulotlarimiz 117 ta mamlakatga yetib bormoqda. Tovar nomenklaturasida 2017 yildagi 179 xil mahsulot turi 2022 yilga kelib 200 dan ortdi.

Shuningdek, paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o‘rniga paxtadan tayyorlangan qo‘silgan qiymati yuqori tovarlar eksporti yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, umumiyligi 1 613,5 million AQSH dollariga teng bo‘lgan paxtadan yigirilgan ip, 644,9 million dollarlik tayyor trikotaj va to‘qimachilik mahsulotlari, 242,8 million dollarlik naqshli mato, 131,6 million dollarlik gazlamalar, 78,1 million dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 million dollarlik gilam mahsulotlari eksport qilindi.





## Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

### ADABIYOTLAR:

1. Qulliyev O. ISHLAB CHIQARISH IMKONIYATLARI CHIZIG'I //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
2. Qulliyev O., Abduqahhorov B. ECONOMIC GLOBALIZATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
3. Qulliyev O. PUL MABLAG'LARI HISOB: IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA ULARNING ASOSIY VAZIFALARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
4. Qulliyev O. ЛИНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРОИЗВОДСТВА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
5. Qulliyev O. Covid-19 и экономика Узбекистана //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
6. Qulliyev O. ПРИНЦИПЫ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МНОГОСТОРОННИХ БАНКОВ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
7. Qulliyev O., Jiyanov L. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫЙ ПОДОХОД К СЕЛЬСКОМУ ХОЗЯЙСТВУ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
8. Anvarovich Q. A. et al. THE ECONOMIC MODERNIZATION OF UZBEKISTAN //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 332-339.
9. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li. Covid-19 va O'zbekiston iqtisodiyoti JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND STABILITY (JARS)
10. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR Volume: 01 Issue: 05| 2021
11. Rasulovich K. A., Ulugbekovich K. A. SECTION: ECONOMICS //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2020. – С. 25.
12. Rasulovich K. A. THE ROLE OF AGRO-TOURISM IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-ECONOMIC INFRASTRUCTURE IN RURAL AREAS //Наука и образование сегодня. – 2021. – №. 3 (62). – С. 13-14.
13. Khodjayev A. R. et al. EFFICIENCY OF USING MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN SMALL BUSINESS //World science: problems and innovations. – 2021. – С. 130-132.
14. Xodjayev A. et al. THE ROLE OF SMM MARKETING IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT DURING A PANDEMIC //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.



## Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

15. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li CHOVACHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA AQLLI FERMADA ZAMONAVIY SENSORLI TEXNOLOGIYALARING RIVOJLANISHI Toshkent davlat iqtisodiyot unuversiteti konferensiyasi 2021-y. 186-192-betlar.
16. Anvar o'g'li, Qulliyev Oxunjon. "Functioning Principles and Main Activities of Multilateral Development Banks." International Journal of Culture and Modernity 15 (2022): 83-86.
17. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li, Bobomurodov Qayimjon Homidovich, O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QASQARTIRISH, O'ZBEKISTONDA FANALARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI ISSN: 2181-3302 SJIF:5,963 23-SON 20.10.2023 [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/11154](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11154) 271-273-betlar
18. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li, Normurodov Jamshit Baxshibek o`g`li, THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND PROMISING OPPORTUNITIES TO INCREASE IT IN UZBEKISTAN O'ZBEKISTONDA FANALARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI ISSN: 2181-3302 SJIF:5,963 23-SON 20.10.2023 [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/111533](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/111533) 70-374- betlar
19. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li, Normurodov Jamshit Baxshibek o`g`li, THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND PROMISING OPPORTUNITIES TO INCREASE IT IN UZBEKISTAN European Journal of Business Startups and Open Society| ISSN: 2795-9228 Vol. 3 No. 12 (Dec - 2023): <https://inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/2150/209058-61>- betlar